

## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING BUGUNGI KUNDA SAMARADORLIK JIHATLARI

**Tirkasheva Nilufar Zafarjon qizi**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi*

*e-mail: nilufartirkasheva5@gmail.com*

**Ilmiy rahbar: Bovanova Umida Abduvaxabovna**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti o’qituvchisi*

*e-mail: umidabovanova8@gmail.com*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarning qo’llanilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Zamонавиylim texnologiyalari o’quvchilarining qiziqishini oshirish, individual yondashuvni ta’minalash va bilimlarni o’zlashtirish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Interfaol ta’lim usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli resurslardan foydalanish boshlang‘ich sinf o’quvchilarining bilim olishga bo’lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Ushbu innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonining sifatini oshirib, o’quvchilarining kreativ va mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarning samaradorlik jihatlari tahlil qilinib, ularning ta’lim sifatiga ta’siri o’rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, innovatsion texnologiyalar, samaradorlik, onlayn platformalar, ta’lim, internet, interaktiv dasturlar.

**Аннотация:** Сегодня использование инновационных технологий в начальном образовании способствует повышению эффективности образовательного процесса. Современные образовательные технологии позволяют повысить интерес учащихся, обеспечить индивидуальный подход и ускорить процесс обучения. Использование интерактивных методов обучения, информационно-коммуникационных технологий и цифровых ресурсов повышает энтузиазм учащихся начальной школы к учебе. Эти инновационные подходы играют важную роль в повышении качества образовательного процесса и развитии навыков творческого и самостоятельного мышления учащихся. В данном исследовании анализируется эффективность инновационных технологий в начальном образовании и изучается их влияние на качество образования.

**Ключевые слова:** начальное образование, инновационные технологии, эффективность, онлайн-платформы, образование, Интернет, интерактивные программы.

**Abstract:** Key words: primary education, innovative technologies, efficiency, online platforms, education, Internet, interactive programs.

## KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim tizimi har bir mamlakatning kelajagini belgilovchi muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolalar nafaqat bilim olishadi, balki o‘z shaxsiyatlarini shakllantiradilar, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradilar va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga tayyorlanadilar. Zamonaviy davrda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, bu jarayonni yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar, xususan, raqamli ta’lim resurslari, multimedia materiallari va interaktiv dasturlar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishning bиринчи samaradorlik jihatni bu o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishdir. Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish, bolalarning diqqatini jalb qilish va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, interaktiv ta’lim platformalari va o‘yinlar yordamida bolalar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida, ularning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ikkinchi jihat, innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonining individualizatsiyasi hisoblanadi. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatları, qiziqishlari va o‘rganish uslublari mavjud. Raqamli ta’lim resurslari yordamida o‘qituvchilar har bir o‘quvchining o‘ziga mos ta’lim dasturini yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq ochishiga yordam beradi va ularning o‘qish jarayonidagi muvaffaqiyatini oshiradi. Boshlang‘ich sinfda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish jarayonini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Interfaol metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim olish darajasini rivojlantirishga katta yordam beradi. Chunki interfaol usullar va innovatsion metodlar o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o‘yin mashqlardan foydalanib, darslar o‘tish yaxshi samara beradi. Ko‘proq atrof-muhit bilan bog‘lab o‘tilgan mashg‘ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash darajasini, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e’tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdoorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog‘idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o‘quvchilarni

darslarga bo’lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi. O’quvchilarga dars jarayonlarini har bir dars ko’lamida puxta singdirib borishimiz kerak. Bunda biz o’qitishda yangi innovatsion g’oyalardan, interfaol uslublar va kreativ yondashuvlardan o’rinli ravishda o’z vaqtida foydalana bilishimiz lozim. Buning uchun barcha boshlang’ich ta’lim tizimidagi o’qituvchilar barcha innovatsion texnologiyalarni chuqur egallagan va u haqida bilimlarni o’zlashtirgan bo’lishi kerak deb o’layman. Men o’z o’qish faoliyatim davomida ko’pgina innovatsion g’oyalardan, turli xil didaktik o’yin mashqlardan keng ko’lamda foydalanaman. Men o’qish darslarida ayniqlsa, “Zinama- zina”, “Klaster”, “Bu meniki”, “Charxpalak”, “Zanjir”, “Davom ettir”, “BBB” metodi, “Sinkveyn” metodi, “Aqliy hujum”, “Topib o’qi” kabi usul va ta’limiy mashqlardan ko’p foydalanaman. Bu albatta, ko’pincha kreativ fikrlashdan kelib chiqadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Lev Vygotskiy – uning ijtimoiy o’rgatish nazariyasi, ayniqlsa, boshlang’ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo’llashda juda muhim bo’lib, o’quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi. Vygotskiy ta’lim jarayonida texnologiyaning ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qanday ishlashi haqida o’z ilmiy ishlari bilan hissa qo’shgan.

Jean Piaget – uning kognitiv rivojlanish nazariyasi o’quvchilarning ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar yordamida qanday ta’sir qilishini tushunishga yordam beradi. Piaget boshlang’ich ta’limda yosh bolalarning fikrlash va o’rganish usullarini o’rganib, ta’lim jarayonida texnologiyaning o’rnini belgilaydi.

Seymour Papert – uning “Logo” dasturlash tili va “constructivist” ta’lim nazariyasi boshlang’ich ta’limda texnologiyaning qo’llanilishini rivojlantirishga katta ta’sir ko’rsatdi. Papertning ishlari, o’quvchilarning o’z tajribalari asosida bilimlarni yaratishlariga imkon beradigan innovatsion yondashuvni ta’kidlaydi.

Howard Gardner – “Ko’p intellektlar nazariyasi” (Multiple Intelligences Theory) orqali, innovatsion texnologiyalarni turli intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda qanday qo’llash mumkinligini o’rgandi. Bu nazariya boshlang’ich ta’limda individual yondashuvlarni amalga oshirishda muhim o’rin tutadi.

Shuningdek, so’nggi yillarda, pedagogika va ta’lim texnologiyalari sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalarni o’quvchilarning faol ishtirotini oshirish, interaktiv o’quv jarayonlarini Innovatsion texnologiyalar, shuningdek, ta’lim jarayonida hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. O’quvchilar o’zaro fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish va jamoaviy loyihalarda ishtirot etish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Masalan, onlayn forumlar va guruhli ish platformalari orqali bolalar bir-birlari bilan tajriba almashishlari, yangi g’oyalarni muhokama qilishlari va birgalikda ishlashlari mumkin. Bu jarayon, o’z navbatida, ularning ijtimoiy ko’nikmalarini rivojlantiradi va jamoada ishslash qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalar o’qituvchilarga ta’lim jarayonini samarali boshqarish imkoniyatini beradi. O’qituvchilar raqamlı vositalar yordamida o’quvchilarning yutuqlarini kuzatish, ularning bilim darajasini aniqlash va kerakli o’zgarishlarni kiritish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Bu esa

o‘qituvchilarga o‘z darslarini yanada samarali rejalashtirish va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda o‘zgartirish imkoniyatini beradi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo’llash, shuningdek, o‘quvchilarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Raqamlı resurslar, masalan, ma'lumotlar bazalari, statistik dasturlar va analitik vositalar yordamida bolalar ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi o‘qishlari va ish faoliyatida muvaffaqiyatlari bo‘lishlariga yordam beradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish mumkin. O‘quvchilar multimedia vositalari, grafik dasturlar va boshqa raqamli asboblar yordamida o‘z g‘oyalarini ifodalash, yangi loyihamar yaratish va ijodiy ishlanmalar tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon, bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va ularning o‘z imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq, innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo’llashda bir qator muammolar ham mavjud. O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, ularni samarali qo’llash va ta’lim jarayoniga joriy etish ba’zan qiyin bo‘lishi mumkin. Shuningdek, texnologiyalarning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari har bir hududda bir xil emas. Bu esa ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo’llash, shuningdek, o‘quvchilarni internet xavflaridan himoya qilish masalasini ham ko‘taradi. O‘quvchilar internetda ko‘plab ma'lumotlarga erishish imkoniyatiga ega bo‘lishsada, ular noto‘g’ri ma'lumotlar, kiberhujumlar va boshqa xavflarga duch kelishlari mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilar va ota-onalar bolalarga internetdan xavfsiz foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarni o‘rgatishlari zarur.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo’llash, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, individualizatsiyani ta’minlash, hamkorlikni rivojlantirish, o‘qituvchilarga boshqaruva imkoniyatlarini berish va analitik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ijodkorlikni oshirish va zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish zarur. Innovatsion texnologiyalar orqali ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish, kelajak avlodni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurazakov, A. (2020). “Ta’limda innovatsion texnologiyalar: nazariya va amaliyot”. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (dissertatsiya )
2. Qodirov, S. (2021). “Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar”. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti. (dissertatsiya )

3. Murodov, T. (2019). "Innovatsion ta'lim metodlari: nazariy va amaliy asoslar". Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti. ( qo'llanma )
4. Tursunov, A. (2022). "Boshlang'ich ta'limda interaktiv metodlar". Toshkent: Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti. ( qo'llanma )
5. Rasulov, I. (2023). "Ta'limda multimedia texnologiyalarining o'rni". Farg'ona: Farg'ona Davlat Universiteti. ( dissertatsiya )
6. Karimov, R. (2021). "O'zbekistonda ta'lim innovatsiyalari: muammolar va yechimlar". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti. ( dissertation )
7. Ismoilov, D. (2020). "O'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash". Andijon: Andijon Davlat Universiteti. ( dissertation )
8. Sobirov, E. (2022). "Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar". Namangan: Namangan Davlat Universiteti. ( dissertation )